O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

OLIY MATEMATIKA
kafedrasi

E.M.MIRZAKARIMOV

M A P L E 7
d a s t u r i yo r d a m i d a
OLIY MATEMATIKA
msalalarini echish

USLUBIY QO'LLANMA
(2- qism)



Farg'ona-2010

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

OLIY MATEMATIKA
kafedrasi

E.M.MIRZAKARIMOV

M A P L E 7
d a s t u r i yo r d a m i d a
OLIY MATEMATIKA
msalalarini echish

USLUBIY QO‘LLANMA
(2- qism)

Institut ilmiy-uslubiy kengashi
tomonidan tasdiqlangan
bayon №_3_”_26_”_02_2010yil

Farg‘ona-2010

Ushbu uslubiy qo‘llanma, barcha oliy o‘quv yurtidagi texnika yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning, 1-semestrdagi Oliy matematika fanidan, mustaqil ishlarni MAPLE7 dasturidan foydalanib bajarishlari uchun mo‘ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma Oliy matematika fanidan bir va bir necha o‘zgaruvchili funktsiyalarning limiti, hosilalari va ularning tadbiqlariga bag‘ishlamgan. Har bir bo‘limda nazariya bo‘yicha zaruriy ma’lumotlar keltirilgan, ularga mos namunaviy masalalarning yechimlari berilgan va bu yechimlarni MAPLE7 dasturi yordamida bajarish yo‘llari ko‘rsatilgan, shuningdek mustaqil ishlash uchun variantlar tuzilgan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Oliy matematika” kafedrasining uslubiy semenarida muxokama qilingan (№ 6, 18. 01. 2010)

Iqtisod va menejment fakulg‘tetining uslubiy komissiyasi tomonidan maqullangan. (№ 4 , 24 . 01. 2010)

Tuzuvchi katta o‘qituvchi **E.M.MIRZAKARIMOV**

Taqrizchilar:

Tashkent axborot texnologiya universiteti Farg‘ona filiyali, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi ditsenti, texnika fanlari nomzodi: **F.POLVONOV**

Farg‘ona davlat universiteti “Amaliy matematika va informatika” kafedrasi ditsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi: **SH.T.KARIMOV**

Farg‘ona politexnika instituti “Oliy matematika” kafedra mudiri fizika-matematika fanlari nomzodi,dotsent: **A.ABDURAZOQOV**

6. Funktsiyalar. Limitlar. Funktsiyaning uzluksizligi

Barcha ratsional (Q) va irratsional (I) sonlar to‘plami birgalikda haqiqiy sonlar to‘plamini tashkil qiladi. Haqiqiy sonlar to‘plami R harfi bilan belgilanadi.

To‘g’ri chiziqdagi nuqtalar to‘plami bilan R to‘plam orasida har doim o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatish mumkin. Agar bu moslik o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda to‘g‘ri chiziq *sonlar o‘qi* deyiladi. Quyidagi $a<x<b$ ($a<x<b$) tengsizlikni qanoatlantiruvchi hamma *X* sonlar to‘plami ochiq(yopiq) oraliq yoki interval (kesma, segment) deyiladi va (*a;b*) yoki]*a;b*[([*a;b*]) ko‘rinishlarning biri bilan belgilanadi, $a\leq x<b$ ([*a;b*)) va $a<x<b$ {(*a;b*)} lar esa yarim ochiq intervallar deyiladi.

Haqiqiy son *a* ning *absolyut qiymati (moduli)* quyidagicha aniqlanadi:

$$a=\begin{cases}-a, & agar\ a<0\ bo'lsa\\ a, & agar\ a>0\ bo'lsa\end{cases}$$

Ixtiyoriy ikkita *a* va *b* haqiqiy son uchun

$$1)\ |a+b|\leq|a\backslash+|b|,\qquad 2)\ |a|-|b|\leq|a-b|,\qquad 3)\ \frac{|a|}{|b|}=\left|\frac{a}{b}\right|(b\neq 0)$$

munosabatlar har doim to‘g’ridir.

Ta’rif. *D va E* to‘plamlar berilgan bo‘lsin. Agar *D* to‘plamdagi har bir *x* songa biror qoida yoki qonunga ko‘ra $E=\{f(x),x\in D\}$ to‘plamdan bitta *y* son mos qo‘yilsa, *D* to‘plamda *funktsiya* berilgan (aniqlangan) deb ataladi va u $y=f(x)$ kabi belgilanadi, bunda *x erkli o‘zgaruvchi* yoki *argument* deyiladi.

Bu ta’rifdagi *D* va *E* lar orasidagi bog’lanish *funktsional bog’lanish* deyiladi.

D to‘plam funktsiyaning *aniqlanish sohasi* deyiladi. *E* to‘plam, ya’ni *D* ning har bir *x* elementiga moe kelgan f(x) elementlar to‘plami funktsiyaning *o‘zgarish sohasi* deyiladi.

D va *E* to‘plamlar [*a;b*] kesma, (*a;b*) interval, (*a;b*] yoki [*a;b*), yarim intervallar, son o‘qining biror nuqtasi, butun son $(-\infty, +\infty)$ bo‘lishi mumkin.

Funktsiyalar *jadval, grafik analitik* usullarda berilishi mumkin: $y = f(x)$ funktsiya analitik usulda berilganda uning *D* va *E* sohalari berilmagan bo‘lishi mumkin, ammo ularni *f(x)* funktsiyaning xossalaridan foydalanib aniqlanadi.

M i s o l . $y = \lg(4-3x-x^2)$ funktsiyaning aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping.

YE ch i sh. Logarifmik funktsiya

$$4-3x-x^2>0$$

bo‘lganda mahnoga ega bo‘ladi. Kvadrat uchhadning ildizlari

$$x_1=-4,\ x_2=1$$

bo‘lgani uchun yusjridagi tengeizlikni

$$-(x+4)(x-1)>0$$

ko‘rinishda yozib olamiz. Bundan x>-4 va x<1 kelib chikadi.

Demak funktsiyaning aniqlanish sohasi, ya’ni *x* ning berilgan funktsiya mahnoga ega bo‘ladigan qiymatlari to‘plami *(D)* (- 4;1) intervaldan iborat. *D* sohada funktsiyaning qiymatlari

$$0<4-3x-x^2<25/4$$

oraliqda o‘zgargani uchun (bunda $y_0=25/4$ berilgan funktsiya aniqlaydigan parabola uchining ordinatasi)

$$(\infty;\ \lg(25/4))$$

interval . E sohadan iborat bo‘lib, u funktsiyaning qiymatlari to‘plami bo‘ladi.

Agar *D* sohani *E* sohaga akslantirganda o‘zaro bir qiymatli moslik ya’ni $y=f(x)$ funktsiya bajarilsa, u holda *x* ni *y* orqali $x=g(y)$ kabi ifodalash mumkin. Oxirgi funktsiya $y=f(x)$ funktsiyaga *teseskari funktsiya* deyiladi. $x=g(y)$ funktsiya uchun *E* — aniqlanish sohasi *D* esa funktsiyaning o‘zgarish sohasi bo‘ladi. $g(f(x))=x$ va $f(g(y))=y$ bo‘lgani uchun $y=f(x)$ va $x=g(y)$ funktsiyalar *o‘zaro teskari funktsiyalar* bo‘ladi.

Odatda *x=g(y)* teskari funktsiyadagi *x* ni *y* bilan, *y* ni *x* bilan almashtirib *y=g(x)* ko‘rinishda yoziladi.

Masalan, $y=x^3$ va $y=\sqrt[3]{x}$, $y=2^x$ va $y=log_2 x$, *y=sinx* va *y=arcsinx* har bir juft funktsiyalar o‘zaro teskari funktsiyalar. Ularning aniqlanish sohasi moe ravishda quyidagicha:

$x\in(-\infty, +\infty)$ va $x\in(-\infty, +\infty)$, $x\in(-\infty, +\infty)$ va $x\in(0; +\infty)$, $x\in(-\infty, +\infty)$ va $x\in[-1;+1]$.

Agar *u=φ(x)* funktsiya *D* sohada aniqlangan, *G* uning o‘zgarish sohasi, *y=f (u)* funktsiya *G* sohada aniqlangan bo‘lsa, u holda *u =f[φ(x)] = F(x)* funktsiya *murakkab funktsiya* deyiladi.

y=f(*φ(x)* murakkab funktsiya *y* =f*(u)* va *u = φ(x)* funktsiyalarning *kompozitsiyasi* deyiladi.

Funktsiyalarning kompozitsiyasi bir nechta funktsiyalardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan,

$$y=\sin(x^2+1)$$

funktsiya $y=\sin u$ va $u=x^2+1$,

ya’ni ikkita funktsiyaning kompozitsiyasi bo‘lsa,

$$y=\log(\cos 2^{x^2})$$

funktsiya esa uchta:.

$$y=lgu,\ u=\cos v,\ v=2^W,\ w=x^2$$

funktsiyalarning kompozitsiyasidan iboratdir *u, v, w* o‘zgaruvchilar *oraliq argumentlari* deyiladi.

Agar biror *(a;b)* oralikda aniqlangan *y =f*(x) funktsiya *F(x,y)* = 0 tenglamani qanoatlantirsa, u holda *y*=f(x) funktsiya *F(x,y)* = 0 tenglik bilan aniqlangan *oshkormas funktsiya* deyiladi. Funktsiyani oshkor ko‘rinishga keltirish uchun *F(x,y)*=0 tenglikdan *y* ni topish kerak. *y* ni har doim xam topib bo‘lavermaydi, bahzan esa umuman topib bulmaydi. Masalan, $y+x3^y=1$ tenglamani *y* ga nisbatan umuman echib bo‘lmaydi.

Tekislikning (*x; f*(*x*)) kabi aniqlangan nuqtalaridan iborat ushbu

$$\{(x; f(x))\} = \{(x; y) : x\in X,\ y=f(x) \in Y\}$$

to‘plam *y*=f(x) funktsiyaning grafigi deb ataladi. Murakkab funktsiyalarning grafigi ularning ordinatalari ustida (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko‘tarish, ildiz chiqarish, logarifmlash va x.k.) amallar bajarish yordamida takriban chiziladi.

Darajali, ko‘rsatkichli, logarifmik trigonometrik va teskari trigonometrik funktsiyalar *asosiy elementar funktsiyalar* deyiladi.

Asosiy elementar funktsiyalarning aniqlanish va o‘zgarish sohalari

№	Funktsiya	Funktsiyaning aniqlanish sohasi	Funktsiyaning o‘zgarish sohasi
1.	*y =x"*, *p*-natural son	$(-\infty; +\infty)$	*p* juft bo‘lganda: $[0;+\infty)$,
2.	$y=\sqrt[2n]{x}$	$[0;+\infty)$	$[0;+\infty)$
3.	$y=\sqrt[2n+1]{x}$	$(-\infty; +\infty)$	$(-\infty; +\infty)$
4.	$y=a^x$	$(-\infty; +\infty)$	(0;+»)
5.	y = lgx	$(0;+\infty)$	$(-\infty; +\infty)$
6.	$y = \sin x$	$(-\infty; +\infty)$	[-1, 1]
7.	$y = \cos x$	$(-\infty; +\infty)$	[-1, 1]
8.	*y =tgx*	$\left((2n+1)\frac{\pi}{2},(2n-1)\frac{\pi}{2}\right)$ n = 0,±1,±2,…	$(-\infty; +\infty)$

9.	y = ctg x	(nπ; (n+1) π), n=0,±1,±2>…	(- ∞; + ∞)
10	y = arcsin x	[-1;+1]	$[-\frac{\pi}{2},\frac{\pi}{2}]$
P.	y = arccos x	1-1;+1]	[0;π]
12	y = arctg x	(— ∞; +∞)	$\left(-\frac{\pi}{2},\frac{\pi}{2}\right)$
13	y = arcctg x	(— ∞;-+ ∞)	[0; π 1

6.2. Ketma-ketlik va funktsiyaning limiti. Funktsiya uzluksizligi

1-ta’rif. Agar har kanday $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $n_0 = n_0(\varepsilon) > 0$ son topilsaki (bunda n_0 — butun son), barcha $n>n_0$ lar uchun $|x- A| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, u xrlda A son {x} sonli ketma-ketlikning *limiti* deiiladi va bu

$$\lim x_n = A$$

ko‘rinishda yoziladi.

Limitga ega bo‘lgan ketma-ketlik *yatsinlashuvchi,* aks holla esa *uzotslashuvchi* ketma-ketlik deyiladi.

$y = f(x)$ funktsiya biror x_0 nuqtaning atrofida aniq.-langan bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar xrqanday $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ ($\delta = \delta(\varepsilon)$) son topilsaki, argument x ning $0<|x-x_0|<\delta$ qiymatlari uchun $|f(x)-A| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A son $y= f(x)$ funktsiyaning $x\to x_0$ dagi limiti deyiladi va bu quyidagicha yoziladi:

$$\lim_{x\to x_0} f(x) = A$$

3-ta’rif. Agar har kanday $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta = \delta(\varepsilon, x_0)$ son topilsaki, x argumentning $x_a<x<x_0+\delta$ ($x_0-\delta<x<x_0$) tengsizliklarni qanoatlantiruvchi barcha $x\epsilon X$ qiymatlarida $|f(x)-A|<\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A son f(x) funktsiyaning x_0 nuqtadagi *ung (chap) limiti* deb ataladi va quyidagicha yoziladi:

$$\lim_{x\to +0} f(x) = A \quad \text{yoki} \quad f(x_0 + 0) = A,$$

$$\lim_{x\to -0} f(x) = A \quad \text{yoki} \quad f(x_0 - 0) = A$$

Agar $\lim_{x\to\infty} f(x)$ limit mavjud bo‘lsa, *A son y* =f(x) funktsiyaning $x\to\infty$ dagi limiti deyiladi.

Funktsiyaning chap va ung limitlari uning *bir tomonlama limitlari* deyiladi.

Agar ikkala bir tomonlama limit mavjud bo‘lib, ular o‘zaro teng $f(x_0 - 0) = f(x_0 + 0)$ bo‘lsa, f(x) funktsiya $x\to x_0$ da limitga ega deyiladi.

Teorema. Agar $\lim_{x\to a} f(x) = A$, $\lim_{x\to a} f(x) = B$ bo‘lib, A va B lar chekli sonlar bo‘lganda:

$$\lim_{x\to a}[\ f(x)\pm\varphi(x)\ ] = A\pm B,$$

$$\lim_{x\to a} f(x)\cdot\varphi(x) = A\cdot B$$

$$\lim_{x\to a}\frac{f(x)}{\varphi(x)} = \frac{A}{B},\ (B\neq 0)$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

Agar $f(x)$ va $\varphi(x)$ funktsiyalar cheksiz kichik eki cheksiz katta ($x\to a$ da) bo‘lsa, $\frac{f(x)}{\varphi(x)}$ nisbat $\frac{0}{0}$ *ёки* $\frac{\infty}{\infty}$ aniqmaslikni ifodalaydi. Shuningdek limitlarni hisoblashda $:0\cdot\infty,\ \infty-\infty,\ 0^0,\ \infty^0, 1^\infty$

ko‘rinishdagi aniqmasliklar ham uchraydi. Limitlarni hisoblashda birinchi va ikkinchi ajoyib limitlar ahamiyatlidir.

Birinchi ajoyib limit ($\frac{0}{0}$ aniqmaslik)

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}=1$$

Bu limitdan $x\to 0$ da y(x) $\to 0$ bo‘lganda,

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{u(x)}=1,\quad lim_{x\to 0}\frac{\sin mx}{nx}=\frac{m}{n}$$

Ikkinchi ajoyib limit (1^{∞} aniqmaslik)

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^x=\ell,\quad \ell=2{,}7182....,$$

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{k}{x}\right)^x=\ell^k,\quad \frac{1}{x}=y\ \ddot{a}\grave{a}\quad lim_{x\to\infty}(1+ky)^{\frac{1}{y}}=\ell^k$$

Bu limitlarni hisablashda x va y larni bir xil ifoda bo‘lish ahamiyatlidir.

6.1 – misol. $\lim_{x\to\infty}\frac{8x^{10}+11x^9-1}{3x^{10}-x^7+x^6}$ limitni hisablang.

Bu berilgan limit $\frac{\infty}{\infty}$ aniqmaslikka ega, uni ochish uchun kasirning surat va maxrajini *x* ning eng yuqori darajaligisi x^{10} ga bo‘lamiz.

$$\lim_{x\to\infty}\frac{8+\frac{11}{x}-\frac{1}{x^{10}}}{3-\frac{1}{x^3}+\frac{1}{x^4}}=\left(x\to\infty\ da\ \frac{11}{x},\frac{1}{x^{10}},\frac{1}{x^3},\frac{1}{x^4}\ lar\to 0\right)=\frac{8}{3}$$

```
> Limit((8*x^10+11*x^9-1)/(3*x^10-x^7+x^5), x=infinity)=
limit((8*x^10+11*x^9-1)/(3*x^10-x^7+x^5), x=infinity);
```

$$\lim_{x\to\infty}\left(\frac{8x^{10}+11x^9-1}{3x^{10}-x^7+x^5}\right)=\frac{8}{3}$$

6.2 – misol. $\lim_{x\to 1}\frac{\sqrt{x+15}-\sqrt{17-x}}{x^2+5x-6}$ limitni hisablang.

Bu limit $x\to 1$ da surat va maxraji 0 ga intilgani uchun $\frac{0}{0}$ aniqmaslika ega. Bu aniqmaslikni ochish uchun kasirni surat va maxrajini suratning qo‘shmasi $\sqrt{x+15}+\sqrt{17-x}$ ga ko‘paytiramiz.

$$\lim_{x\to 1}\frac{x+15-17+x}{(x^2+5x-6)\left(\sqrt{x+15}+\sqrt{17+x}\right)}=\lim_{x\to 1}\frac{2(x-1)}{(x-1)(x+6)\left(\sqrt{x+15}+\sqrt{17+x}\right)}=$$

$$=\lim_{x\to 1}\frac{2}{(x+6)\left(\sqrt{x+15}+\sqrt{17+x}\right)}=\frac{1}{28}$$

```
> Limit((sqrt(x+15)-sqrt(17-x))/(x^2+5*x-6), x=1)=
limit((sqrt(x+15)-sqrt(17-x))/(x^2+5*x-6), x=1);
```

$$\lim_{x\to 1}\left(\frac{\sqrt{x+15}-\sqrt{17-x}}{x^2+5x-6}\right)=\frac{1}{28}$$

6.3 – misol. $\lim\limits_{x\to 0}\frac{tgx-\sin x}{x^3}$, $\left(\frac{0}{0}\right)$ limitni hisablang.

Bu limitni hisablashda funktsiyada shunday shakil almashtirish kerakki, unga barincha ajoyib limitni kullash mumkin bo‘lsin.

$$\lim_{x\to 0}\frac{\frac{\sin x}{\cos x}-\sin x}{x^3}=\lim_{x\to 0}\frac{\sin x(1-\cos x)}{x^3\cos x}=\lim_{x\to 0}\frac{1}{\cos x}\cdot\frac{\sin x}{x}\cdot\frac{1-\cos x}{x^2}=$$

$$=\lim_{x\to 0}\frac{1}{\cos x}\cdot\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}\cdot\lim_{x\to 0}\frac{2\sin^2\frac{x}{2}}{x^2}=1\cdot 1\cdot\lim_{x\to 0}\frac{1}{2}\left(\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\right)^2=\frac{1}{2}\left(\lim_{x\to 0}\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\right)^2=\frac{1}{2}\cdot 1=\frac{1}{2}$$

```
> Limit((tan(x)-sin(x))/(x^3), x=0)=
limit((tan(x)-sin(x))/(x^3), x=0);
```

$$\lim_{x\to 0}\left(\frac{\tan(x)-\sin(x)}{x^3}\right)=\frac{1}{2}$$

6.4 - misol. $\lim\limits_{x\to\infty}(5x-1)[\ln(x-4)-\ln x]$, $(\infty-\infty)$ limitni hisablang.

Lagorifmlash qoidalari asosida:

$$\lim_{x\to\infty}(5x-1)\ln\frac{x-4}{x}=\lim_{x\to\infty}\ln\left(\frac{x-4}{x}\right)^{5x-1}=\lim_{x\to\infty}\ln\left[1+\left(-\frac{4}{x}\right)\right]^{5x-1}$$

$y=lnx$, $x>0$ funktsiya uzuliksiz ekanidan $\lim\limits_{x\to\infty}\ln x=\ln(\lim\limits_{x\to\infty}x)$ o‘rinli. Bundan:

$$\lim_{x\to\infty}\ln\left[1+\left(-\frac{4}{x}\right)\right]^{5x-1}=\ln\lim_{x\to\infty}\left[\left(1+\frac{-4}{x}\right)^x\right]^5\lim_{x\to\infty}\left[\left(1+\frac{-4}{x}\right)\right]^{-1}=$$

$$=\ln[(e^{-4})^5\cdot 1^{-1}]=\ln e^{-20}=-20;$$

```
> Limit((5*x-1)*(ln(x-4)-ln(x)),x=infinity)=limit((5*x-1)*(ln(x-4)-ln(x)),x=infinity);
```

$$\lim_{x\to\infty}((5x-1)(\ln(x-4)-\ln(x)))=-20$$

Qo‘shimch misollar:

6.5-misol.
```
> exr := ((5*x+3)/(x-2))^x;
```

$$expr:=\left(\frac{5x+3}{x-2}\right)^x$$

```
> Limit( exr, x=infinity )=limit( exr, x=infinity );
```

$$\lim_{x\to\infty}\left(\frac{5x+3}{x-2}\right)^x=\infty$$

6.6-misol.
```
> Limit( (5*x^3+6*x+1)/(6*x^3+4*x+2),x=infinity)=
limit( (5*x^3+6*x+1)/(6*x^3+4*x+2),x=infinity );
```

$$\lim_{x\to\infty}\left(\frac{5x^3+6x+1}{6x^3+4x+2}\right)=\frac{5}{6}$$

6.7-misol.
```
> Limit( (x^3/(x^3+9)^1/3), x=infinity )=
limit( (x^3/(x^3+9)^1/3), x=infinity );
```

$$\lim_{x\to\infty}\left(\frac{1}{3}\frac{x^3}{x^3+9}\right)=\frac{1}{3}$$

6.8-misol.
```
> Limit(((x^2-5*x+4)/(x^2-6*x+3)),x=4)=
```

```
limit(((x^2-5*x+4)/(x^2-6*x+3)),x=4 );
```

$$\lim_{x\to 4}\left(\frac{x^2-5x+4}{x^2-6x+3}\right)=0$$

6.9-misol.

```
> Limit(sqrt(1-cos(x))/x*sqrt(2),x=2)=
limit(sqrt(1-cos(x))/x*sqrt(2),x=2);
```

$$\lim_{x\to 2}\left(\frac{\sqrt{1-\cos(x)}\,\sqrt{2}}{x}\right)=\frac{1}{2}\sqrt{1-\cos(2)}\,\sqrt{2}$$

Funktsiyalarni uzliksizligini aniqlash

Funktsiya uzluksizligi tushunchasi muxim tushunchalardan xisoblanadi.

1) *f(x)* funktsiya $x = x_0$ nuqta va uning atrofida aniqlangan;
2) x_0 nuqtada *f*(x) funktsiya limitga ega;
3) funktsiyaning $x\to x_0$ dagi limiti funktsiyaning x_0 nuqtadagi qiymatiga teng, ya'ni

$$\lim_{x\to x_0} f(x)=f(x_0) \quad (1.2)$$

bo'lsa, $y=f(x)$ funktsiya $x = x_0$ nuqtada *uzluksiz* deiiladi. Agar *x* o'rniga $x = x_0+\Delta x$ ni kuysaq (1.2) uzluksizlik shartiga teng kuchli bo'lgan shartga ega bo'lamiz:

$$\lim_{\Delta x\to 0}\Delta f(x)=\lim_{\Delta x\to 0}\left[f(x_0+\Delta x)-f(x_0)\right]=0$$

ya'ni funktsiya argumentining x_0 nuqtadagi cheksiz kichik orttirmasi Δx ga funktsiyaning cheksiz kichik orttirmasi $\Delta f(x)$ moe kelganda va fakdt shunda $y = f(x)$ funktsiya shu nuqtada uzluksiz bo'ladi.

Biror sohaning xamma nuqtalarida uzluksiz bo'lgan $u = f(x)$ funktsiya shu sohada uzluksiz deyiladi.

Agar x_0 nuqtada funktsiya uzluksizligining yuqoridagi uchta shartidan birortasi bajarilmasa, x_0 nuqta *uzilish nutstasi* deyiladi.

Agar x nuqtada

$$\lim_{x\to x_0-0} f(x)=f(x_0-0) \text{ va } \lim_{x\to x_0+0} f(x)=f(x_0+0)$$

limitlar mavjud bo'lib, $f(x_0-0)\neq f(x_0+0)$ bo'lsa, x_Q nuqta 1- *tur uzilish nuqtasi* deyiladi.

Agar $\lim_{x\to x_0-0} f(x)$, $\lim_{x\to x_0+0} f(x)$ limitlar yoki ularning birortasi mavjud bo'lmasa yoki ∞ ga teng bo'lsa, x_0 nuqta *2-tur uzilish nuqtasi* deyiladi.

Agar x_0 nuqtada bir tomonlama limitlar mavjud va $f(x_0—0) = f(x_0+0)=fix_o)$ bo'lsa, u holda x_0 nuqta *bartaraf qilinish mumkin bo'lgan uzilish nuqtasi* deyiladi.

Funktsiyalarni aniqlanish sohasni va uzliksizligini aniqlashga doir misollar.

6.10-misol. $ó=\dfrac{x^2+1}{2x-1}$ **funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.**

Yechish. Bu kasir funktsiya mavjud bo'lishi uchun uning maxraji noldan farqli bo'lishi kerak. Yani $x\neq\frac{1}{2}$ bundan funktsiyani aniqlanish sohasi : $(-\infty,\frac{1}{2})$ va $(\frac{1}{2},+\infty,)$. $x=\frac{1}{2}$ funktsiyaning uzilish nuqtasi.

```
> restart;
```

$$f:=x\to\frac{x^2+1}{2x-1}$$

```
> f:=x->(x^2+1)/(2*x-1);
```

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

```
>type(f(x),oddfunc(x));
```

false

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

```
> type(f(x),evenfunc(x));
```

false

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzulik sizligi:

`> iscont(f(x),x=-2..2);` *false*

`> iscont(f(x),x=-2..0);` *true*

`> iscont(f(x),x=1..2);` *true*

Uzlisl nuqtaqsi:

`> discont(f(x),x);` $\left\{\frac{1}{2}\right\}$

Funktsiyaning aniqlanish sohasi:

`> solve(2*x-1<0,x);` $RealRange\left(-\infty, Open\left(\frac{1}{2}\right)\right)$

`> solve(2*x-1>0,x);` $RealRange\left(Open\left(\frac{1}{2}\right), \infty\right)$

6.11-misol. $ó=\sqrt{2x-3}$ **funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.**

Yechish. Bu kasir funktsiya mavjud bo'lishi uchun uning ilsiz ostisagi ifodasi manfiy bo'lmasligi kerak. Yani $2x-3\geq 0$ bundan $x\geq\frac{3}{2}$. Funktsiyani aniqlanish sohasi : $[\frac{3}{2}, +\infty,)$.

$x=\frac{3}{2}$ funktsiyaning kritik nuqtasi.

`> restart;`

`> f:=x->sqrt(2*x-3);` $f := x \to \sqrt{2x-3}$

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

`> type(f(x),oddfunc(x));` *false*

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

`> type(f(x),evenfunc(x));` *false*

Kritik nuqta:

`> discont(f(x),x);` $\left\{\frac{3}{2}\right\}$

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzulik sizligi:

`> iscont(f(x),x=-2..2);` *false*

`> iscont(f(x),x=2..4);` *true*

Funktsiyaning aniqlanish sohasi:

`> solve(2*x-3>=0,x);` $RealRange\left(\frac{3}{2}, \infty\right)$

6.12-misol. $ó=\sqrt{x-2}+\sqrt{4-x}$ **funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.**

Yechish. Bu funktsiyani aniqlanish sohasi uning ildiz ostidagi ifodalari manfiy bo'lmasligi bilan aniqlanadi.

Yani $x-2\geq 0$ va $4-x\geq 0$ bundan $x\geq 2,\ x\leq 4$. Funktsiyani aniqlanish sohasi : $2\leq x\leq 4$ yoki $[2, 4]$. $x=2,\ x=4$ funktsiyaning kritik nuqtasi.

`> restart;`

`> f:=x->sqrt(x-2)+sqrt(4-x);` $f := x \to \sqrt{x-2}+\sqrt{4-x}$

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

```
> type(f(x),oddfunc(x));
```
false

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

```
> type(f(x),evenfunc(x));
```
false

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzuliksizligi:

```
> iscont(f(x),x=0..4);
```
false

```
> iscont(f(x),x=3..4);
```
true

Uzlisl nuqtaqsi:

```
> discont(f(x),x);
```
$\{2, 4\}$

Funktsiyaning aniqlanish sohasi:

```
> solve({x-2>=0,4-x>=0},x);
```
$\{2 \% x, x \% 4\}$

6.13-misol. $ó = \arcsin\left(\frac{2x}{1+x}\right)$ funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.

Yechish. Bu funktsiya xossasiga asosan uning argumenti uchun $\left|\frac{2x}{1+x}\right| \le 1$ va $x \ne -1$ sartni bajarilishi kerak. Bundan

$$4x^2 \le 1 + 2x + x^2 \quad \text{yoki} \quad 3x^2 - 2x - 1 \le 0 \ \text{dan} \ -\frac{1}{3} \le x \le 1$$

Bu tengsizlikning eychimidan funktsiyani aniqlanish sohasi : $[-\frac{1}{3}, 1]$ buda $x = -1$ funktsiyaning kritik nuqtasi.

```
> restart;
> f:=x->arcsin(2*x/(1+x));
```
$f := x / \ \arcsin 0 \frac{2\,x}{1 \text{ C } x} 1$

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

```
> type(f(x),oddfunc(x));
```
false

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

```
> type(f(x),evenfunc(x));
```
false

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzulik sizligi:

```
> iscont(f(x),x=-2..2);
```
false

```
> iscont(f(x),x=-1..0);
```
true

Uzlisl nuqtaqsi:

```
> discont(f(x),x);
```
$\{\text{K } 1\}$

Funktsiyaning aniqlanish sohasi:

```
> solve(abs(2*x/(1+x))<1,x);
```
$RealRange\,0\, Open\,0 \frac{\text{K } 1}{3} 1, Open(1)\,1$

6.14-misol. $ó = \frac{tgx}{\sqrt{x^2 - x + 1}}$ funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.

Yechish. Bu funktsiya maxrajidagi ifoda argumentning barch qiymatlarida aniqlangan bo'lganligi uchun funktsiya suratidagi tgx ning uzulish nuqtalarini aniqlaymiz:

$$x = \frac{\pi}{2} + n\pi,\ n = 0, \pm 1, \pm 2,,,,$$

Funktsiyani aniqlanish sohasi : $-\frac{\pi}{2} < x < \frac{\pi}{2} + n\pi,\ n = 0, \pm 1, \pm 2,,,,$

```
> restart;
> f:=x->tan(x)/sqrt(x^2-x+1);
```

$f := x/\ \frac{\tan(x)}{\sqrt{x^2 \text{K}\ x \text{C}\ 1}}$

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

```
> type(f(x),oddfunc(x));
```

false

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

```
> type(f(x),evenfunc(x));
```

false

tan(x) ni Uzlisl nuqtaqsi:

```
> discont(tan(x),x);
```

$\text{4}\ \_Z1\sim \text{C}\ \frac{1}{2}\ \text{p}\ \text{5}$

Funktsiyaning uzlisl nuqtaqsi:

```
>  discont(f(x),x);
```

$\text{4}\ \_Z2\sim \text{C}\ \frac{1}{2}\ \text{p}\ \text{5}$

```
> solve({x^2-x+1>0},x);
```

$\{x = x\}$

6.15-misol. $ó = \arccos\sqrt{3-2x-x^2}$ **funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.**

Yechish. Bu funktsiya aniqlanish sohasi uning xossasiga asosan uning argumenti uchun $0 \le \sqrt{3-2x-x^2} \le 1$ shartning bajarilishidan aniqlanadi. Yani

$$0 \le 3-2x-x^2 \le 1$$

dan funktsiyani aniqlanish sohasi :

$$-3 \le x \le 1-\sqrt{3} \text{ va } \sqrt{3}-1 \le x \le 1$$

bu erda $x = -3,\ x = 1$ funktsiyaning kritik nuqtasi.

```
> restart;
> f:=x->arccos(sqrt(3-2*x-x^2));
```

$f := x/\ \arccos \text{0}\sqrt{3 \text{K}\ 2\,x \text{K}\ x^2}\text{1}$

Funktsiyaning toqligini tekshirish:

```
> type(f(x),oddfunc(x));
```

false

Funktsiyaning juftlgini tekshirish:

```
> type(f(x),evenfunc(x));
```

false

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzulik sizligi:

```
> iscont(f(x),x=-2..2);
```

false

```
> iscont(f(x),x=-2..0);
```

true

Funktsiyaning uzlisl nuqtaqsi:

```
> discont(f(x),x);
```

{K 3, 1, *RealRange*(*Open*(K 3), *Open*(1))}

Funktsiyaning aniqlanish sohasi:

```
> solve(0<3-2*x-x^2,x);
```

RealRange(*Open*(K 3), *Open*(1))

```
> solve(3-2*x-x^2<=1,x);
```

RealRange(K N, K 1 K $\sqrt{3}$), *RealRange*(K 1 C $\sqrt{3}$, N)

```
> evalf(solve({3-2*x-x^2>=0,3-2*x-x^2<=1},x));
```

{K 3.%x, x%K 2.732050808 }, {0.7320508076 %x, x%1. }

6.16-misol. $ó = \begin{cases} x^2, & x \le 0 \\ (x-1)^2, & 0 < x \le 2 \\ 5-x, & x < 2 \end{cases}$ **funktsiyani aniqlanish sohasi va uzluksizligi aniqlansin.**

```
> restart;
> f:=piecewise(x<=0, x^2, x>0 and x<2, (x-1)^2, x>2,5-x);
```

$$f := \begin{cases} x^2 & x \le 0 \\ (x-1)^2 & 0 < x \textbf{ and } x < 2 \\ 5-x & 2 < x \end{cases}$$

```
> simplify(%);
```

$$\begin{cases} x^2 & x \le 0 \\ (x-1)^2 & x < 2 \\ 0 & x = 2 \\ 5-x & 2 < x \end{cases}$$

Ko'rsatilgan oraliqdagi uzulik sizligi:

```
> iscont(f,x=0..2);
```

true

```
> discont(f,x);
```

{0, 2}

```
> eval( f, x=0. );
```

0

```
> eval( f, x= 2. );
```

0

```
> limit(f, x=-0);limit(f, x=+0);
```

undefined *undefined*

```
> limit(f, x=2-0);limit(f, x=2+0);
```

undefined *undefined*

```
> plot(f, x=-3..6);
```



Nazorat ishi uchun variant namunalari.

1 – variant

1. $\lim\limits_{x\to 5}\dfrac{3x^2-17x+10}{3x^2-16x+5}$, 2. $\lim\limits_{x\to 5}\dfrac{5-x}{3-\sqrt{2x-1}}$;

3. $\lim\limits_{x\to 8}\dfrac{2x^2+x+1}{3x^3+x^2+1}$, 4. $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\sqrt{1-\sin x}}{\sin x}$;

5. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1-\dfrac{2}{x}\right)^x$;

2 – variant

1. $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{4x^2-7x+3}{3x^2-2x-1}$, 2. $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{x}{\sqrt{3+x}-\sqrt{3-x}}$;

3. $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{1+tgx}-1}{3tgx}$, 4. $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{5x^4-x^3+2x}{x^4-8x^3+1}$;

5. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\dfrac{3}{x}\right)^{-x}$; 6. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+1}{2x-1}\right)^{5x}$.

6-MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Lopital qoidasidan foydalanmasdan quyidagi limitlarni hisoblang.

1. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^3+2x^2+4}{4x^3+3x^2+1}$; b) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{x^2-9}{x^2-3x}$; v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\cos x}{5x^2}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+3}{x-2}\right)^x$;

2. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^2-2x+1}{x^3-4x^2+5}$; b) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^3+2x^2+4}{4x^3+3x^2+1}$; v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\cos x}{5x^2}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+5}{x-3}\right)^x$

3. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^4-2}{\sqrt{x^8+3x+4}}$; b) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{x+4}-2}{x}$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg2x}{\sin 3x}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x^2+1}{x^2}\right)^{x^2+1}$

4. a) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{5x^3-2x}{4x^3-2x^2+2}$; b) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{1+3x}-\sqrt{1-2x}}{x+x^2}$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\arcsin 3x}{5x}$; g) $\lim\limits_{x\to 0}(1+\sin x)^{\cos x}$

5. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^4+x+1}{5x^4+7x^2+x}$; b) $\lim\limits_{x\to -3}\dfrac{9-x}{1-\sqrt{4+x}}$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{8x}{\sin^2 5x}$; g) $\lim\limits_{x\to -1}2x\ln(1+\dfrac{1}{x})$.

6. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^4-2x-9}{9x^2+3x+5}$; b) $\lim\limits_{x\to -1}\dfrac{\sqrt{2x+3}-1}{\sqrt{5+x}-2}$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\cos x-\cos^5 x}{x^2}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}(x+2)[\ln(2x+1)-\ln(2x-1)]$

7. a) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{(x+1)^3}{-5x^9+1}$; b) $\lim\limits_{x\to\infty}(x+2)[\ln(2x+1)-\ln(2x-1)]$, v) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{\sqrt{x+1}-2}{\sqrt{x-2}-1}$; g) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\cos 2x}{x^2}$

8. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{6x^5-11x^2+3}{5x-3x^5}$; b) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\sqrt{x+2}-\sqrt{x}\right)$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\cos 5x-1}{xtg2x}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+5}{x+8}\right)^{2x+3}$

9. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{8x^7-6x^6+5}{x-3x^2}$; b) $\lim\limits_{x\to\infty}x\left(\sqrt{x^2+1}-x\right)$ v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\arcsin 2x}{3x}$ g) $\lim\limits_{x\to\infty}x[\ln(x+1)-\ln x]$

10. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{5x^2-8x+1}{x^3-1}$; b) $\lim\limits_{x\to -4}\dfrac{2-\sqrt{8+x}}{4+x}$; v) $\lim\limits_{x\to 0}(1+3x)^{\frac{2x+1}{3x}}$; g) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{arctg3x}{x}$

11. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x-2x^2+5x^4}{2+3x^2+x^4}$; b) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{\sqrt{3x-2}-2}{\sqrt{2x+5}-3}$; v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{x^2 ctg2x}{\sin 3x}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}(2x+3)[\ln(x+1)-\ln x]$.

12. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{2+x^2-3x^3}{1-3x+6x^3}$; b) $\lim\limits_{x\to 4}\dfrac{x^2-16}{\sqrt{x}-2}$; v) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tgx-\sin x}{x\sin x}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x+3}{2x+1}\right)^{x+1}$

13. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^2+x-2}{x-1}$; b) $\lim\limits_{x\to\infty}(\sqrt{x^2-3x}-x)$; v) $\lim\limits_{x\to 0.5}\dfrac{\arcsin(1-2x)}{4x^2-1}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}x[\ln x-\ln(x+2)]$.

14. a) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^3-7x+5}{4x^3+8x-3}$; b) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{1+3x^2}-1}{x^2+x^3}$ v) $\lim\limits_{x\to a}\dfrac{\cos x-\cos a}{x-a}$; g) $\lim\limits_{x\to\infty}(1-\dfrac{2}{x})^{5x}$.

15 1) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{2x^2+5x-10}{x^3-1}$; 3) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{x^2+x-12}{\sqrt{x-2}-\sqrt{4-x}}$; 4) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin 3x-\sin x}{5x}$; 6) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x-7}{x+1}\right)^{4x-2}$.

16 1) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^3-3x+2}{x^2-4x+3}$; 2) $\lim\limits_{x\to -4}\dfrac{\sqrt{x+12}-\sqrt{4-x}}{x^2+2x-8}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg2x-\sin 2x}{x^2}$; 4) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+1}{2x-1}\right)^{5x}$.

17. 1) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{3x^2+2x+1}{x^3-8}$; 2) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sqrt{x^2+4}-2}{\sqrt{x^2+16}-4}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin 7x+\sin 3x}{x\sin x}$; 4) $\lim\limits_{x\to+\infty}\left(\dfrac{6x+5}{x-10}\right)^{5x}$;.

18. 1) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{2x^2-3x-1}{x^4-1}$; 2) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{3ч}{\sqrt{1+x}-\sqrt{1-x}}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\cos 2x-\cos 4x}{arctg3x^2}$; 4) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x-3}{x+4}\right)^{6x+1}$

19. 1) $\lim\limits_{x\to -4}\dfrac{2x^2+7x-4}{x^3+64}$; 2) $\lim\limits_{x\to 5}\dfrac{\sqrt{x+4}-3}{\sqrt{x-1}-2}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\cos 4x-\cos 4x}{tg3x^2}$; 4) $\lim\limits_{x\to+\infty}\left(\dfrac{x-1}{4x+5}\right)^{5x}$

20. 1) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^3+x-2}{x^3-x^2-x+1}$; 2) $\lim\limits_{x\to 4}\dfrac{\sqrt{2x+1}-3}{\sqrt{x-2}-\sqrt{2}}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\cos^2 x-\cos^2 2x}{\arcsin x^2}$; 4) $\lim\limits_{x\to-\infty}\left(\dfrac{3x+7}{x+4}\right)^{5x}$

21. 1) $\lim\limits_{x\to -4}\dfrac{4x^3-2x^2+5x}{3x^2+7x}$; 2) $\lim\limits_{x\to 9}\dfrac{\sqrt{2x+7}-5}{3-\sqrt{x}}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\arcsin 7x}{\sin x+\sin 7x}$; 4) $\lim\limits_{x\to+\infty}\left(\dfrac{x-2}{3x+10}\right)^{5x}$.

22. 1) $\lim\limits_{x\to -5}\dfrac{x^2-x-30}{x^3+125}$; 2) $\lim\limits_{x\to 4}\dfrac{2-\sqrt{x}}{\sqrt{6x+1}-5}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\arcsin 5x}{2x^2-x}$; 4) $\lim\limits_{x\to+\infty}\left(\dfrac{4x+3}{x+5}\right)^{7x}$.

23 1) $\lim\limits_{x\to -6}\dfrac{x^2+2x-24}{2x^3+15x+18}$; 2) $\lim\limits_{x\to 7}\dfrac{\sqrt{x-3}-2}{\sqrt{x+2}-3}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1-\cos 8x}{3arctg^2 x}$; 4) $\lim\limits_{x\to+\infty}\left(\dfrac{1-x}{2-10x}\right)^{15x+3}$

24. 1) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{x^3-2x-40}{x^2-11x+18}$; 2) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{\sqrt{4x+1}-3}{x^3-8}$; 3) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin^2 3x-\sin^2 x}{tgx\cdot arctgx}$; 4) $\lim\limits_{x\to-\infty}\left(\dfrac{x+5}{4x-2}\right)^{3x+7}$

Bir o'zgaruvchili funktsiyaning differentsial hisobi
7. Hosila

7.1. Hosilaning ta'rifi va differentsiallash qoidalari

<u>Ta'rif.</u> $y=f(x)$ ***funktsiyaning hosilasi deb, funktsiya ortirmasi Δy ni argumentning mos ortirmasi Δx ga nisbatining $\Delta x\to 0$ dagi limitiga aytiladi.***

Berilgan funktsiyadan hosila topish amali shu funktsiyani *differentsiallash* deyiladi. Uni quyidagicha belgilanadi:

$$y',\quad y'_x,\quad \frac{dy}{dx}\quad \text{eki}\quad f'(x),\quad \frac{df(x)}{dx}$$

$y = f(x)$ funktsiyaning hosilasini hisoblash quyidagi to‘rt bosqichda bajariladi.

I. x, Δx ; x + Δx da: $y + \Delta y = f(x + \Delta x)$

II. $\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x)$

III. $\dfrac{\Delta y}{\Delta x} = \dfrac{f(x-\Delta x)}{\Delta x}$

IV. $\lim\limits_{\Delta x \to 0} \dfrac{\Delta y}{\Delta x} = \lim\limits_{\Delta x \to 0} \dfrac{f(x-\Delta x)}{\Delta x} = f'_x(x)$

Differentsiallash qoidalari:

1. $(U \pm V)'_x = U'_x \pm V'_x$

> Diff(u+v, x)=diff(u(x)+v(x), x);

$$\frac{\partial}{\partial x}(u+v) = \frac{d}{dx}u(x) + \frac{d}{dx}v(x)$$

2. $(U \cdot V)'_x = U' \cdot V + V' \cdot U \ , \ (CU)' = C \cdot U'$

> Diff(u*v, x)=diff(u(x)*v(x), x);

$$\frac{\partial}{\partial x}(u\,v) = \left(\frac{d}{dx}u(x)\right)v(x) + u(x)\left(\frac{d}{dx}v(x)\right)$$

3. $(U \cdot V \cdot W)'_x = U' \cdot V \cdot W + U \cdot V' \cdot W + U \cdot V \cdot W'$

> Diff(u*v*w, x)=diff(u(x)*v(x)*w(x), x);

$$\frac{\partial}{\partial x}(u\,v\,w) = \left(\frac{d}{dx}u(x)\right)v(x)\,w(x) + u(x)\left(\frac{d}{dx}v(x)\right)w(x) + u(x)\,v(x)\left(\frac{d}{dx}w(x)\right)$$

> Diff(u(x)*v(x), x$3)=diff(u(x)*v(x), x$3);

$$\frac{d^3}{dx^3}(u(x)\,v(x)) = \left(\frac{d^3}{dx^3}u(x)\right)v(x) + 3\left(\frac{d^2}{dx^2}u(x)\right)\left(\frac{d}{dx}v(x)\right) + 3\left(\frac{d}{dx}u(x)\right)\left(\frac{d^2}{dx^2}v(x)\right) + u(x)\left(\frac{d^3}{dx^3}v(x)\right)$$

4. $\left(\dfrac{U}{V}\right)' = \dfrac{U' \cdot V - V' \cdot U}{V^2}, \quad \left(\dfrac{C}{V}\right)' = -\dfrac{C}{V^2}V'$

> Diff(u/v, x)=diff(u(x)/v(x), x);

$$\frac{\partial}{\partial x}\left(\frac{u}{v}\right) = \frac{\frac{d}{dx}u(x)}{v(x)} - \frac{u(x)\left(\frac{d}{dx}v(x)\right)}{v(x)^2}$$

5. y = f(U), U = φ(x) bo‘lsa, $y'_x = f'_U \cdot f'_x$

> Diff(F(u(x)), x)=diff(F(u(x)), x);

$$\frac{d}{dx}F(u(x)) = (D(F))(u(x))\left(\frac{d}{dx}u(x)\right)$$

6. $y=[u(x)]^{V(x)}$, $y'_x=[u(x)]^{v(x)}\left[\frac{dv(x)}{dx}\ln(u(x))+\frac{v(x)}{u(x)}\frac{du(x)}{dx}\right]$

> Diff(u(x)^v(x), x)=diff(u(x)^v(x), x);

$$\frac{d}{dx}u(x)^{v(x)} = u(x)^{v(x)}\left(\left(\frac{d}{dx}v(x)\right)\ln(u(x)) + \frac{v(x)\left(\frac{d}{dx}u(x)\right)}{u(x)}\right)$$

7. x=φ(t), y=ψ(t) ; $y'_x=\frac{y'_t}{x'_t}$, $\frac{dy}{dx}=\frac{[\psi(t)]'_t}{[\varphi(t)]'_t}$

> x:=phi(t); y:=psi(t); dy/dx=diff(y,t)/diff(x,t);

$$x := \phi(t) \quad y := \psi(t) \quad \frac{dy}{dx} = \frac{\frac{d}{dt}\psi(t)}{\frac{d}{dt}\phi(t)}$$

> dy/dx =diff(si(t),t)/diff(hi (t),t); $\frac{dy}{dx} = \frac{\frac{d}{dt}\psi(t)}{\frac{d}{dt}\phi(t)}$

8. $F(x,\ y(x))=0$, $F'_x+F'_y y'_x=0$, $y'_x=-\frac{F'_x}{F'_y}$

> diff(F(x,y(x)), x)=0;

$$(D_1(F))(x, y(x)) + (D_2(F))(x, y(x))\left(\frac{d}{dx}y(x)\right) = 0$$

```
> d:=solve((D[1](F))(x,y(x))+(D[2](F))(x,y(x))*d, d);
```

$$d := -\frac{(D_1(F))(x, y(x))}{(D_2(F))(x, y(x))}$$

HOSILALAR JADVALI

1. $(C)'=0$ — $U=U(x)$ bo‘lganda,

2. $(X)'=1$ — $y=f(U)$ hosilasi:

3. $(x^n)'=nx^{n-1}$ — $(U^n)'=nU^{n-1}*U'_x$.

$$4.\ \left(\frac{1}{x}\right)' = -\frac{1}{x^2} \qquad \left(\frac{1}{U}\right)' = -\frac{1}{U^2}$$

$$5.\ \left(\sqrt{x}\right)' = \frac{1}{2\sqrt{x}} \qquad \left(\sqrt{U}\right)' = \frac{1}{2\sqrt{U}}U'$$

$$6.\ \left(a^x\right)' = a^x \ln a \qquad \left(a^u\right)' = a^u U' \ln a$$

$$7.\ \left(e^x\right)' = e^x \qquad \left(e^u\right)' = e^u U'$$

$$8.\ (\log_a x)' = \frac{1}{x}\log_a e \qquad (\log_a U)' = \frac{U'}{U}\log_a e$$

$$9.\ (\ln x)' = \frac{1}{x} \qquad (\ln U)' = \frac{U'}{U}$$

$$10.\ (\sin x)' = \cos x \qquad (\sin u)' = (\cos u)u'$$

$$11.\ (\cos x)' = -\sin x \qquad (\cos u)' = (-\sin u)u'$$

$$12.\ (tgx)' = \frac{1}{\cos^2 x} \qquad (tgu)' = \frac{1}{\cos^2 u}u'$$

$$13.\ (ctgx)' = -\frac{1}{\sin^2 x} \qquad (ctgu)' = -\frac{1}{\sin^2 u}u'$$

$$14.\ \left.\begin{matrix}(\arcsin x)' \\ (\arccos x)'\end{matrix}\right\} = \pm\frac{1}{\sqrt{1-x^2}} \qquad \left.\begin{matrix}(\arcsin u)' \\ (\arccos u)'\end{matrix}\right\} = \pm\frac{u'}{\sqrt{1-u^2}}$$

$$15.\ \left.\begin{matrix}(arctgx)' \\ (arcctgx)'\end{matrix}\right\} = \pm\frac{1}{1+x^2} \qquad \left.\begin{matrix}(arctgu)' \\ (arcctgu)'\end{matrix}\right\} = \pm\frac{u'}{1+u^2}$$

7.1-misol. Quyidagi funktsiyalarning hosilasini toping.

$$1.\ y = \ln(1-\sin x) \qquad 2.\ y = 2^{\arcsin(x^2)}$$

$$3.\ y = (tgx)^{\frac{1}{x}} \qquad 4.\ \begin{cases} x = a\cos t \\ y = b\sin t \end{cases}$$

$$5.\ \cos(xy) = x \qquad 6.\ \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$

Yechish.

1). $y = \ln(1-\sin x)$ - murakkab funktsiya bo‘lganligi uchun U(x)=1-sinx deb, y = ln(U(x)) funktsiya hosilasini topamiz. Murakkab funktsiya hosilasini topish qoidasiga asosan:

$$y' = \frac{1}{U(x)}U'_x = \frac{1}{1-\sin x}(1-\sin x)' = \frac{-\cos x}{1-\sin x}.$$

> Diff(ln(1-sin(x)), x)=diff(ln(1-sin(x)), x);

$$\frac{d}{dx}\ln(1\ \mathrm{K}\ \sin(x)) = \mathrm{K}\ \frac{\cos(x)}{1\ \mathrm{K}\ \sin(x)}$$

2). $y = 2^{\arcsin(x^2)}$ - murakkab funktsiya. Agar *arcsin* $(x^2) = U$ kabibelgilasak, bu funktsiya ham murakkab funktsiya bo‘ladi, bu holda:

$$y' = 2^u \ln 2 \cdot U'_x \quad ; \quad U'_x = \frac{1}{\sqrt{1-(x^2)^2}}(x^2)' = \frac{2x}{\sqrt{1-x^4}}$$

demak, $y = 2^{\arcsin(x^2)} \cdot \frac{2x}{\sqrt{1-x^4}} \ln 2$

> **Diff(2^(arcsin(x^2)), x)=diff(2^(arcsin(x^2)), x);**

$$\frac{d}{dx} 2^{\arcsin(x^2)} = \frac{2\, 2^{\arcsin(x^2)}\, x \ln(2)}{\sqrt{1 - x^4}}$$

3). $y = (tgx)^{\frac{1}{x}}$ funktsiya , $y = [U(x)]^{V(x)}$ ko‘rinishdagi funktsiya bo‘lib, uni daraja ko‘rsatkichli funktsiya deyiladi. Bu funktsiya hosilasini topish uchun uni logarifmlash bilan, xosil bo‘lgan lny murakkab funktsiya hosilasini topamiz :

$$\ln y = \frac{1}{x} \ln tgx \; ; \qquad (\ln y)'_x = (\frac{1}{x} \ln tgx)'_x$$

$$\frac{1}{y} y'_x = -\frac{1}{x^2} \ln tgx + \frac{1}{x} \frac{1}{tgx} \frac{1}{\cos^2 x}$$

$$\frac{1}{y} y'_x = \frac{1}{x} (\frac{1}{\sin x} \frac{1}{\cos x} - \frac{\ln tgx}{x})$$

$$y'_x = \frac{1}{x} (\frac{2}{\sin 2x} - \frac{\ln tgx}{x})$$

$$y'_x = (tgx)^{\frac{1}{x}} \frac{1}{x} (\frac{2}{\sin 2x} - \frac{\ln tgx}{x})$$

> **Diff(tan(x)^(1/x), x)=diff(tan(x)^(1/x), x);**

4) $\begin{cases} x = a\cos t \\ y = b\sin t \end{cases}$ Parametrik funktsiya hosilasini topish qoidasiga binoan:

$$y'_t = (a\sin t)'_t = a\cos t \; , \quad x'_t = (a\cos t)'_t = -a\sin t$$

$$y'_x = \frac{y'_t}{x'_t} = \frac{a\cos t}{-a\sin t} = -ctgt$$

> **x:=a*cos(t); y:=b*sin(t); dy/dx=diff(y,t)/diff(x,t);**

$$x := a\cos(t) \quad y := b\sin(t)$$

$$\frac{dy}{dx} = -\frac{b\cos(t)}{a\sin(t)}$$

> **dy/dx=diff(b*sin(t),t)/diff(a*cos(t),t);**

$$\frac{dy}{dx} = -\frac{b\cos(t)}{a\sin(t)}$$

5) cos(x y) = x funktsiya *y* ga nisbatan echilmaganligi uchun u oshkormas deyiladi. Bunday funktsiya hosilasini topishda y = y(x) ekanligini e’tiborga olib, hosila topiladi:

$$[\cos(xy)]'_x = (x)'_x \qquad \sin(xy)(xy)'_x = 1 \qquad (1y + xy')\sin(xy) = 1$$

$$y + xy'_x = \frac{1}{\sin(xy)}, \qquad xy'_x = \frac{1 - y\sin(xy)}{\sin(xy)} \qquad y' = \frac{1}{x} \cdot \frac{1 - y\sin(xy)}{\sin(xy)} = \frac{1 - y\sin(xy)}{x\sin(xy)}$$

> **restart;**
> **diff(cos(x*y(x))-x, x)=0;**

$$-\sin(x\,y(x))\left(y(x)+x\left(\frac{d}{dx}\,y(x)\right)\right)-1=0$$

> d1:=solve(-sin(x*y(x))*(y(x)+x*d1)-1= 0, d1);

$$d1:=-\frac{\sin(x\,y(x))\,y(x)+1}{\sin(x\,y(x))\,x}$$

6) Shuningdek, $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ ellipsning 1-tartibli hosshdasini topish:

> restart;
> diff(x^2/a^2+y(x)^2/b^2-1, x)=0;

$$\frac{2\,x}{a^2}+\frac{2\,y(x)\left(\frac{d}{dx}\,y(x)\right)}{b^2}=0$$

> d:=solve(2*x/a^2+2*y(x)*d/b^2 = 0, d);

$$d:=-\frac{x\,b^2}{y(x)\,a^2}$$

7.2. Yuqori tartibli hosilalar va differentsiallar

Yuqorida funktsiyaning hosilasi argumentning ixtiyoriy qiymatida (aniqlanish soasiga tegishli) mavjud bo‘lsa, hosila ham funktsiyadan iborat ekanligini ko‘rdik.

Agar funktsiyaning *birinchi tartibli hosilasi* ham hosilaga ega bo‘lsa, *hosiladan olingan hosilani ikkinchi tartibli hosila* deb yuritiladi.

Funktsiyaning hosilasini uning *birinchi tartibli hosilasi* deb qabul qilsak, umumiy holda quyidagi ta’rifni berish mumkin.

Ta’rif. *Agar funktsiyaning (n-1) tartibli hosilasi differentsialanuvchi bo‘lsa, uning hosilasini funktsiyaning n-tartibli hosilasi* deyiladi va $y^{(n)}$, $\frac{d^n y}{dx^n}$, $f^{(n)}(x)$, $\frac{d^n f(x)}{dx^n}$ kabi belgilanadi. Bu holda *funktsiya n marta differentsiallanuvchi* deyiladi.

Demak,

$$y^{(n)}=\left(y^{(n-1)}\right)', \qquad n=1,\ 2,\ \ldots$$

bu erda funktsiyaning nolinchi tartibli hosilasi sifatida uning o‘zini qabul q ilish tabiiydir, ya’ni

$$y^{(0)}=y.$$

Eslatma. *Yuqori tartibli hosilani belgilashda hosila belgisini kerakli marta takrorlash usuli am o‘llaniladi. Masalan, y'' - ikkinchi, y''' - uchinchi va okazo tartibli hosilalardir. Shuningdek, bahzan Rim raqamlari ham qo‘llaniladi, masalan, y^{IV} - to‘rtinchi, y^{V} – beshinchi va hokazo tartibli hosilalardir.*

Quyidagi misollarni keltiramiz:

7.2-misol. $y=a_0x^n+a_1x^{n-1}+\ldots+a_{n-1}x+a_n$ bo‘lsa, funktsiyaning n-inchi tartibli hosilasi:

$y'=na_0x^{n-1}+(n-1)a_nx^{n-2}+\ldots+a_{n-1}$,
$y''=n(n-1)a_0x^{n-2}+(n-1)(n-2)a_nx^{n-3}+\ldots+a_{n-1}$,
$y'''=n(n-1)(n-2)a_0x^{n-3}+(n-1)(n-2)(n-3)a_nx^{n-4}+\ldots+a_{n-1}$,
$y^{IV}=n(n-1)(n-2(n-3)a_0x^{n-4}+(n-1)(n-2)(n-3)(n-4)a_nx^{n-5}+\ldots+a_{n-1}$,

- - - - - - - - - - - - - - - - - - -

$y^{(n)}=n\cdot(n-1)\cdot\ldots\cdot2\cdot1\cdot a_0=a_0\,n!$,

$y^{(n+1)}=y^{(n+2)}=\ldots=0$.

```
> diff( a0*x^m,x$n);
```

$$\mathrm{pochhammer}(m-n+1,n)\,a0\,x^{(m-n)}$$

```
> _EnvFallingNotation := GAMMA;
```

$$\_EnvFallingNotation := \Gamma$$

```
> diff(x^m,x$n);
```

$$\frac{\Gamma(m+1)\,x^{(m-n)}}{\Gamma(m-n+1)}$$

Demak, *n* – darajali ko‘phadning *n* – tartibli hosilasi o‘zgarmas son bo‘lib, (*n+1*)- tartibli hosilasidan boshlab yuqori tartibli hosilalarining barchasi nolga teng bo‘lar ekan.

7.3-misol. $f(x)=e^{kx}$, k – o‘zgarmas $(k\neq0)$. funktsiyaning n-tartibli hosilasi

$f'(x)=e^{kx}(kx)'=ke^{kx}$;

$f''(x)=(f'(x))'=(ke^{kx})'=k(e^{kx})'=k\cdot ke^{kx}=k^2e^{kx}$

……………………….

$f^{(n)}(x)=k^ne^{kx}$

Demak,

$$(e^{kx})^{(n)}=k^n e^{kx},\ n\in N$$

```
> Diff( e^k*x, x$n )=diff( exp(k*x), x$n );
```

$$\frac{\partial^n}{\partial x^n}(e^k x)=k^n e^{(kx)}$$

7.4-misol. *f(x)=sinx*. funktsiyaning n-tartibli hosilasini topish.

$$f'(x)=\cos x=\sin(x+\frac{\pi}{2}),$$

$$f''(x)=(f'(x))'=(\sin(x+\frac{\pi}{2}))'=\cos(x+\frac{\pi}{2})\cdot 1=\sin(x),$$

- -

$$f^{(n)}(x)=\sin(x+n\cdot\frac{\pi}{2}),$$

ya'ni $(\sin x)^{(n)}=\sin(x+n\cdot\frac{\pi}{2}),\ \ n\in N$

```
> Diff(sin(x), x$n);
```

$$\frac{d^n}{dx^n}\sin(x)$$

```
> value(%);
```

$$\sin\left(x+\frac{1}{2}n\pi\right)$$

7.5-misol. *f(x)=cosx*. funktsiyaning n-tartibli hosilasini topish.
Yuqoridagiga o'xshash,

$$(\cos x)^{(n)}=\cos(x+n\cdot\frac{\pi}{2}),\ \ n\in N$$

ni olish mumkin.

```
> cn := diff( cos(x), x$n );
```

$$cn:=\cos\left(x+\frac{1}{2}n\pi\right)$$

7.6-misol. *f(x)=uv*, bu erda *u* va *v* lar ixtiyoriy tartibli hosilalari mavjud funktsiyalardir.

$$(uv)'=u'v+uv'$$

$$(uv)''=((uv)')'=(u'v+uv')'=u''v+u'v'+u'v'+uv''=u''v+2u'v'+uv''$$

va hokazo.

$$(u\cdot v)^{(n)}=\sum_{k=0}^{n}C_n^k\,u^{(n-k)}\cdot v^{(k)}$$

ni olish mumkin. Bu ***Leybnits formulasi*** deb yuritiladi. Bu yerda nolinchi tartibli hosila funktsiyaning o'zi ekanligini eslash lozim.

```
> Diff(u(x)*v(x), x$n);
```

$$\frac{d^n}{dx^n}(u(x)\,v(x))$$

```
> value(%);
```

$$\sum_{\_k1=0}^{n} \operatorname{binomial}(n, \_k1)\left(\frac{d^{\_k1}}{dx^{\_k1}} u(x)\right)\left(\frac{d^{n-\_k1}}{dx^{n-\_k1}} v(x)\right)$$

7.7- misol. $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ ellipsning x bo'yicha 2-tartibli hosilasini topish:

1) hosilasini topish qoidasiga asosan:

```
1)> restart;
> diff(x^2/a^2+y(x)^2/b^2-1, x$2)=0;
```

$$\frac{2}{a^2}+\frac{2\left(\frac{d}{dx} y(x)\right)^2}{b^2}+\frac{2\, y(x)\left(\frac{d^2}{dx^2} y(x)\right)}{b^2}=0$$

```
> d2:=solve(2/a^2+2*(diff(y(x),x))^2/b^2+2*y(x)*d2/b^2 =
0,d2);
```

$$d2 := -\frac{b^2+\left(\frac{d}{dx} y(x)\right)^2 a^2}{y(x)\, a^2}$$

2) oshkormas funktsiya hoslasini topish

```
> with(algcurves):
> F:=x^2/a^2+y^2/b^2-1=0;
```

$$F := \frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}-1=0$$

```
> yx:=implicitdiff(F,y,x);
```

$$yx := -\frac{x\, b^2}{y\, a^2}$$

```
> yxx:=implicitdiff(F,y,x$2);
```

$$yxx := -\frac{b^2\left(a^2 y^2+x^2 b^2\right)}{y^3 a^4}$$

Parametrik funktsiyaning 2- tartibli hosilasi:

```
> x:=phi(t); y:=psi(t);
d(dy/dx)/dx=diff(diff(y,t)/diff(x,t),t)/diff(x,t);
```

$$x := \phi(t) \qquad y := \psi(t)$$

$$\frac{d\left(\frac{dy}{dx}\right)}{dx}=\frac{\frac{\frac{d^2}{dt^2}\psi(t)}{\frac{d}{dt}\phi(t)}-\frac{\left(\frac{d}{dt}\psi(t)\right)\left(\frac{d^2}{dt^2}\phi(t)\right)}{\left(\frac{d}{dt}\phi(t)\right)^2}}{\frac{d}{dt}\phi(t)}$$

7.8- misol. $\begin{cases} x = a\cos t \\ y = b\sin t \end{cases}$ Parametrik funktsiyani 2- tartibli hosilasini topish.

```
> x:=a*cos(t); y:=b*sin(t);
d(dy/dx)/dx=diff(diff(y,t)/diff(x,t),t)/diff(x,t);
```

$$x := a\cos(t) \qquad y := b\sin(t)$$

$$\frac{d\left(\frac{dy}{dx}\right)}{dx} = -\frac{\frac{b}{a}+\frac{b\cos(t)^2}{a\sin(t)^2}}{a\sin(t)}$$

Endi, yuqori tartibli differentsial tushunchasini kiritamiz. Buning uchun funktsiya differentsialini uning birinchi tartibli differentsiali argument orttirmasini o‘zgarmas deb qabul qilgan holda (*n–1*) – tartibli differentsialning differentsialini *n-tartibli differentsial deb ataymiz* va uning uchun $d^n y$, $d^n f(x)$ kabi belgilashlarni qo‘llaymiz.

Demak, Ta’rif bo‘yicha $d^n y=d(d^{n-1}y)$ekan. Oxirgi formula asosida

$$d^2y=d(dy)=d[f'(x)dx]=(f''(x)dx)dx=f''(x)dx^2$$

va hokazo,

$$d^n y=f^{(n)}(x)dx^n$$

formulani olamiz.

Bu yerda ikkinchi va undan yuqori tartibli differentsiallar birinchi tartibli differentsialning invariantlik xossasiga ega emasligini ammo, oraliq o‘zgaruvchi bo‘lgan murakkab funktsiya argumenti (erkli o‘zgaruvchi)ning chiziqli funktsiyasi bo‘lgan holda bu xossa saqlanishini aytamiz.

Yuqori tartibli hosila ma’nolariga kelsak, agar moddiy nuta $S=S(t)$ qonun bo‘yicha to‘g’ri chiziq bo‘ylab harakatlanayotgan bo‘lsa, undan (yo‘l funktsiyasidan) olingan birinchi tartibli hosila moddiy nuqtaning tezligi $\vartheta=\vartheta(t)$ ekanligi bizga ma’lum, ya’ni

$$\vartheta=\frac{dS}{dt}\ .$$

Agar tezlanishni qaralsa,

$$a=\lim_{\Delta t\to 0}\frac{\Delta\vartheta}{\Delta t}=\frac{d\vartheta}{dt}$$

ekanligini chiqarish qiyin emas:

$$a=\frac{d\vartheta}{dt}=\frac{d}{dt}\left(\frac{dS}{dt}\right)=\frac{d^2S}{dt^2}\ .$$

Demak, *to‘g’ri chiziqli harakatda bo‘lgan moddiy nuqtaning tezlanishi uning yo‘l funktsiyasidan olingan ikkinchi tartibli hosilaga teng* ekan. Bu ikkinchi tartibli hosilaning fizik mahnosidir.

7- MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi funktsiyalarni hosilasini toping.

1. a) $y=\ln(x+\sqrt{x^2+1})$, b) $y=\left(\frac{x-1}{x+2}\right)^4$ v) $tg\frac{y}{x}=5x$, g) $\begin{cases}x=\cos\frac{t}{2}\\ y=t-\sin t\end{cases}$

2. a) $y=x^2\sqrt{1-x^2}$, b) $y=\frac{\sin x}{\cos^2 x}$ v) $x-y+arctgy=0$, g) $\begin{cases}x=t^3+8t\\ y=t^5+2t\end{cases}$

3. a) $y=tg^6x$, b) $y=\frac{e^{2x}}{\sqrt{3x-1}}$ v) $x-y+arcctgy=0$, g) $\begin{cases}x=2\sin^3 t\\ y=\cos^2 t\end{cases}$

4. a) $y=\sin^3\frac{x}{3}$, b) $y=x\sqrt{1+x^2}$ v) $y\sin x=\cos(x-y)$ g) $\begin{cases}x=\ln t\\ y=\frac{t}{2}+\frac{1}{t}\end{cases}$

5. a) $y=\ln tg\frac{t}{2}$, b) $y=\arcsin\sqrt{1-3x}$ v) $\frac{y}{x}=arctg\frac{x}{y}$, g) $\begin{cases}x=t+\ln\cos t\\ y=t-\ln\sin t\end{cases}$

6. a) $y=\ln(x+\sqrt{x^2+1})$, b) $y=\frac{1}{tg^2 2x}$ v) $y^2x=e^{\frac{y}{x}}$, g) $\begin{cases}x=2t-t^3\\ y=2t^2\end{cases}$

7. a) $y=\ln\sqrt{2\sin x+1}$, b) $y=3^{arctgx^2}$ v) $x-y+\arcsin y=0$, g) $\begin{cases}x=3\cos t\\ y=4\sin^2 t\end{cases}$

8. a) $y=\arcsin\frac{2x^2}{1+x^4}$, b) $y=x^2\sqrt{1-x^2}$ v) $x-y+a\sin y=0$, g) $\begin{cases}x=3\cos t\\ y=4t^2\end{cases}$

9. a) $y=arctg\frac{\ln x}{3}$, b) $y=\frac{4\sin x}{\cos^2 x}$ v) $x-y+a\cos y=0$, g) $\begin{cases}x=3\cos^2 t\\ y=2\sin^3 t\end{cases}$

10. a) $y=e^x arctge^x$, b) $y=\sin x-\frac{x}{\cos x}$ v) $x-y+e^y arctgx=0$, g) $\begin{cases}x=e^{2t}\\ y=\cos t\end{cases}$

11. a) $y=\frac{1}{2}tg^2\sqrt{x}$, b) $y=\frac{\ln x}{\sqrt{x^2+1}}$ v) $\ln y=arctg\frac{x}{y}$, g) $\begin{cases}x=t-\sin t\\ y=t-\cos t\end{cases}$

12. a) $y=\ln\cos\sqrt{x}$, b) $y=\frac{11}{2(x-2)^2}$ v) $\sqrt{x}+\sqrt{y}=\sqrt{a}$, g) $\begin{cases}x=t^3+8t\\ y=t^5+2t\end{cases}$

13. a) $y=\ln\cos\sqrt{x}$, b) $y=(\frac{x}{x+1})^2$ v) $x^3+y^3+2xy=a^3$, g) $\begin{cases}x=\cos\frac{t}{2}\\ y=t-\sin t\end{cases}$

14. 1) $y=\sqrt[3]{4x^2-3x-4}-\frac{2}{(x-3)^5}$; 2) $y=\sqrt{\arccos 2x}\cdot 3^{-x}$;
3) $y=(\cos 5x)^{\sqrt{x}}$; 4) $y-4x=e^y$; .

15. 1) $y=\frac{7}{(x-1)^3}+\sqrt{8x-3+x^2}$; 2) $y=arctg5x\cdot ln(x^2+x-1)$;
3) $y=\left(\sqrt{3x+2}\right)^{3x}$; 4) $\frac{3x}{sin\,y}=5y$;

16 1) $y=\sqrt[5]{3x^2+4x-5}+\frac{4}{(x-4)^6}$; 2) $y=5^{-x^2}arcsin3x^3$;
3) $y=(2x-10)^{sin\sqrt{x}}$; 4) $xy=ctgy$;

17. 1) $y=\frac{3}{(x+2)^4}-\sqrt[7]{5x-7x^2-3}$; 2) $y=log_3(2x+5)\cdot\sqrt{arcctg6x}$;
3) $y=(7x+4)^{\sqrt{3x-5}}$; 4) $tgy=3x+6y$;

18 1) $y=\sqrt[4]{(x-1)^5}-\frac{4}{7x^2-3x+2}$; 2) $y=e^{-cos\,x}\cdot arcctg2x^3$;
3) $y=(log_2(5x+7))^{2x}$; 4) $y^2+x^2=sin\,y$;

19 1) $y=\sqrt[5]{(x-2)^6}-\frac{3}{(x^2-4)^2}$; 2) $y=ctg4x\cdot arcsin5x^6$;
3) $y=(lg(8x+3))^{\sqrt{2x}}$; 4) $4sin^2(x+y)=x$;

20 1) $y=\frac{3}{(4x-3x^2+1)^2}-\sqrt{(x+1)^5}$; 2) $y=2^{sin\,x}\cdot\sqrt[3]{arccos^2 3x}$;
3) $y=\left(lg\sqrt{2x+3}\right)^{(3x+8)}$; 4) $y=7x-ctgy$;

21 1) $y=\sqrt[3]{(x-8)^4}-\frac{2}{(1+3x-4x^2)^2}$; 2) $y=\sqrt{5x+1}\cdot arctg^3 4x$;
3) $y=(sin6x)^{\sqrt{10x+3}}$; 4) $x-6=cos\,y$;

22 $1)\ y=\dfrac{4}{(3x-7)^5}+\sqrt[3]{(3x^2-x+1)^4};$ $\quad 2)\ y=\sqrt{tg\,2x}\cdot lg(6x+1);$

$3)\ y=(cos(4x+5))^{3x};$ $\quad 4)\ x^2y^2+x=5y;$

23 $1)\ y=\sqrt[7]{(2x+1)^5}+\dfrac{5}{(2x^2-4x+3)^6};$ $\quad 2)\ y=log_5(7x-2)\cdot arcsin\,x^3;$

$3)\ y=(lg\,7x)^{3^{\sqrt{x+2}}};$ $\quad 4)\ 3y-7=xy^3;$.

7.3. Egri chiziqning urinma va normal tenglamalari

1.Agar $y=f(x)$ funksiya x_1 nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsa, bu nuqtaning qandaydir atrofida aniqlangan ekanligidan shu atrofdagi uning grafigini quramiz.



Funksiya grafigining $M(x_1;y_1)$ nuqtasidagi urinmaning burchak koeffitsienti funksiya hosilasining $x=x_0$ nuqtadagi qiymatiga teng bo‘ladi.

$$k_t=f'(x_1)$$

Bu hosilaning geometrik ma’nosidir. Bundan foydalanib, funksiya grafigining $M(x_1;y_1)$ nuqtasiga o‘tkazilgan urinma tenglamasini quyidagich yozamiz:

$$y-f(x_1)=f'(x_1)(x-x_1).$$

Xuddi shuningdek, qaralayotgan nuqtadagi normal (urinmaga erendikulyar to‘g‘ri chiziq) tenglamasi erendirulyarlik sharti

$$k_n=-\frac{1}{k_t}=-\frac{1}{f'(ő_1)}$$

ga asosan

$$ó-f(x_0)=-\frac{1}{f'(ő_1)}(ő-ő_1)$$

bo‘ladi(bu yerda $f'(x_0)\neq 0$ deb faraz qilindi).

7.9-misol. $y=x^3$ funktsiya grafigining $x=1$ ga mos keluvch nuqtasidagi urinma va normalini toping.

Urinma, normal tenglamasi

```
> with(plots):
> f:=x->x^3:a:=1;   a := 1
> D(f);D(f)(a);   x/  3 x^2
                  3
> T:=x->f(a)+(x-a)*D(f)(a);   T := x/  f(a) C (x K a) (D(f))(a)
